

73. To'g'ri chiziq, nur, kesma



Yondosh mavzu:
peyzaj.

Chiziq, nuqta,
kesma, nur, to'g'ri chiziq.






Bir xil harflarni to'g'ri chiziqlar yordamida tutashtiring, bunda to'g'ri chiziqlar bir-biri bilan kesishmasin.

Namuna:




1. Rasmlarni ko'rib chiqing. To'g'ri chiziq, kesma va nurlarda qanday umumiylik bor? Ular nimalari bilan farqlanadi?




To'g'ri chiziq ikkala tomonidan ham chegaralanmagan.
Nur bir tomondan nuqta bilan chegaralangan.
Kesma ikkala tomonidan nuqta bilan chegaralangan.

2. Chizmadan qanday kesma, nur va to'g'ri chiziqlarni topish mumkin? Ularni ayting.




3. Daftaringizga rasmda ko'rsatilgani kabi nuqtalarni belgilang. AB to'g'ri chiziq va CD kesma o'tkazing. To'g'ri chiziq bilan kesma kesishadimi?



4. Peyzajning xomaki nusxasini tayyorlash uchun rassom 3 kun ishladi. Birinchi kun u 2 h 40 min, ikkinchi kun 2 h 25 min, uchinchi kun 2 h 20 min ishladi. Shu uch kunda u hammasi bo'lib qancha vaqt ishlagan?



5. Rasmda qanday chiziqlar keltirilgan?



6. a) Daftaringizga O nuqtani belgilang. Bu nuqta orqali nechta to'g'ri chiziq o'tkazish mumkin?

b) Daftaringizga A va B nuqtalarni belgilang. Bu ikki nuqta orqali nechta to'g'ri chiziq o'tkazish mumkin?



7. Misollarni yeching va rasmning to'liq bo'lmagan, tugallanmagan varianti yoki qismi qanday atalishini bilib oling.

A $300 + 380$

R $600 - 200$

U $180 + 250$

T $470 - 390$

S $185 + 555$

L $698 - 309$

CH $157 + 386$



543	680	389	80	740	430	400	672
-----	-----	-----	----	-----	-----	-----	-----



8. Uch xonali sonlarni o'sib borish tartibida joylashtiring va rasmning xomaki nusxasi yana qanday atalishini bilib oling.

A $(650 - 370) - 250$

I $(900 - 300) + 200$

E $(620 + 150) - 480$

S $(150 + 350) - 140$

Z $850 + (900 - 840)$

K $900 - (140 + 250)$



9. Bir suratni chizish uchun 28 quti, ikkinchi surat uchun esa 12 quti ko'p bo'yoq kerak bo'ladi. Ikkinchi surat uchun necha quti bo'yoq kerak bo'ladi?